


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

70230101 – *Lingvistika (o'zbek tili)* magistratura mutaxassisligining
malaka talablari

Toshkent – 2023



ISHLAB CHIQILGAN:

- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil “07” 08 dagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70230101 – <i>Lingvistika (o'zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	70230101 – <i>Lingvistika (o'zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70230101 – <i>Lingvistika (o'zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi.....	4
1.2.1.	70230101 – <i>Lingvistika (o'zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	70230101 – <i>Lingvistika (o'zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	70230101 – <i>Lingvistika (o'zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	70230101 – <i>Lingvistika (o'zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	70230101 – <i>Lingvistika (o'zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumi kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3.	Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	9
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	9
2.3.2	70230101 – <i>Lingvistika (o'zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar....	10
2.3.3.	70230101 – <i>Lingvistika (o'zbek tili)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	10
	Bibliografik ma'lumotlar.....	13
	Kelishuv varag'i.....	14

1. 70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me’yoriy muddati – 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi **70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili)** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;
- magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;
- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tiziminiakkreditatsiya qiluvchi va ta’lim sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilar va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilar va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) magistratura mutaxassisligi – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari ilmiy-tadqiqot markazlarida, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida, O‘zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti, uning viloyat va shaharlardagi bo‘limlarida, davlat tilini joriy qilish va davlat tilida ish yuritish bo‘yicha vazirliklar, hokimliklar, korxona va tashkilotlarda ish yuritish; Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi, malaka oshirish muassasalarida bo‘lim mas’uli,

metodist sifatida faoliyat yuritish, ommaviy axborot vositalarida faoliyat yuritishni qamrab oladi.

Mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgartirishlar bo'lishi mumkin.

1.2.2. 70230101 – *Lingvistika (o'zbek tili)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish va jarayonlarni tashkil etish;
- O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti, uning viloyat va shaharlardagi bo'limlarida faoliyat olib borish;
- Davlat tilini joriy qilish va davlat tilida ish yuritish bo'yicha vazirliklar, hokimliklar, korxona va tashkilot rahbarlarining maslahatchilari sifatida ish yuritish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- davlat va xususiy nashriyotlarida ilmiy muharrir, soha muharrirlari sifatida noshirlik va matbaachilik bilan shug'ullanish;
- reklama markazlari, reklamani muvofiqlashtiruvchi muassasalarda til va adabiyot bo'yicha maslahatchi bo'lib ish yuritish;
- ommaviy axborot vositalarida muharrir, bosh muharrir va soha muharriri sifatida faoliyat olib borish.

1.2.3. 70230101 – *Lingvistika (o'zbek tili)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- xizmat ko'rsatish faoliyati.

1.2.4. 70230101 – *Lingvistika (o'zbek tili)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari:

70230101 – *Lingvistika (o'zbek tili)* mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajara olishi lozim:

ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklar yaratish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlarini tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni sharhlash, munosabat bildirish, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish, bibliografiya tuzish;

- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, loyihaviy, va innovatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlardan maqsadga yo‘naltirilgan holda foydalansih;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda ularda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy model-larini yaratish;
- oliv ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o‘quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, o‘quv mashg‘ulotlarini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalari-dan foydalangan holda tashkil etish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o‘quv-metodik majmualarni o‘zlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam ravishda oshirib borish;

tashkiliy-boshqaruva faoliyatida:

- jamoada ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;
- nostandard vaziyatlarda tashkiliy boshqaruva yuzasidan qarorlar qabul qilish va ushbu qarorlar uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga ola bilish;
- faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o‘qitishni tashkil qilish va korporativ ma’lumotlar bazasini rivojlantirish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;
- nodavlat va notijorat tashkilotlarida, xususiy tadbirkorlik subyektlari-da ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha maslahatchi sifatida faoliyat yuritish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Pedagogik faoliyatda:

- o‘qitish metodikasini egallash;
- oliv ta’lim, umumta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi muassasalarida mutaxassisligiga oid tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan’anaviy o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish;
- o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

- o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarni o‘tkazishda texnik vositalardan foydalanish;
- mustaqil ta’lim va ijodiy izlanish natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish;
- gumanitar fanlar sohasi uchun DTS, Malaka talablari, Davlat talablari va boshqa o‘quv-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish *qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.*

Turli xizmatlar ko‘rsatish:

- mutaxassislikka mos maslahatchilik xizmati;
- o‘zbek tilshunosligi tarixini ilmiy o‘rganish, jarayonlarni obyektiv va xolis ilmiylik nuqtayi nazaridan yoritish;
- tadqiq qilingan mavzular bo‘yicha aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- vaqtli matbuot nashrlarida, davlat va xususiy nashriyotlarda tahrir ishlarni amalga oshirish;
- qadimgi qo‘lyozma va toshbosma manbalarni o‘qish va tabdil qilish;
- pullik ta’lim xizmati ko‘rsatish;
- muharrirlik va tahrir ishlari faoliyati;
- ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha davlat grantlari va xo‘jalik shartnomalari asosida tadqiqot ishlari olib borish, boshqa xizmatlarni ko‘rsatish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

2. 70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumi kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallashi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- lingvistik kompetensiyaga ega bo‘lishi, kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va zamonaviy ilmiy asosda foydalana bilishi;
- yangi bilimlarni mukammal egallashi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqishi va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o‘z faoliyatida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalanish, ma’lumotlarni saqlash, qayta ishslashning asosiy usullari va vositalarini egallashi, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- maxsus fanlarni o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi, kasbiy ko'nikma hamda malakani puxta egallashi;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondasha olishi;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;
- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tashkilot, korxona va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning Davlat tilida ish yuritishga tayyorgarlik darajasini oshirib borish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- muloqot madaniyatini egallagan bo'lishi, mantiqiy fikrlay olish, og'zaki va yozma nutqini dalillagan holda aniq, to'g'ri bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ilmiy, Davlat tilida ish yuritish hamda o'zbek tili me'yordagi talablari bo'yicha ekspertizadan o'tkaza olishi;
- nazariy tilshunoslik masalalarini o'zlashtirishi, ilmiy talqinlarning mazmun-mohiyatini anglashi, munosabat bildira olishi;
- nutq mexanizmi, nutqning shakllanishi, ifoda etilishi, idrok qilinishiga oid psixolingvistik qonuniyatlarni bilishi;
- matn ustida ishlash malakasiga ega bo'lishi, turli lingvistik aspektlarda tahlil qila olishi, matn mazmuniga oid yondashuvlarni bilishi, matn turlari xususiyatlarini o'zlashtirishi;
- lingvistik areallar, tillarning o'zaro ta'siri, lingvistik xaritalar, lingvistik atlasmalar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishi;
- semantika ko'rinishlarini, semantika va semiotika munosabatini, semantikaning ligivistik kompetensiyani shakllantirishdagi ahamiyatini bilishi;
- kognitiv tilshunoslik asoslarini, tushunchalarini, kognitiv-semantik tahlil usullarini;
- nutqiy akt nazariyasi, pragmatik ma'no, muloqot, diskurs, presuppozitsiya, propozitsiya, modus tushunchalarining mazmunini o'zlashtirishi;
- til siyosati, standart til, xorijiy sotsiolingvistika masalalarini bilishi, til siyosati muammolarini yechishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqsa olishi;

- til va madaniyat munosabati, lingvistik birliklarda madaniy sema ifodasi, til sohibi konseptosferasiga oid milliy-madaniy, tafakkur, idrok belgilariga oid ma'lumotlarni tahlil qila olishi lozim.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahshni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

- Magistrantlarning umumiy va kasbiy kompetensiyalarni, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tash hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura bosqichi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahsga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari –magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni takomillashtirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi ilmiy faoliyat o'tkaziladi:

- Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish
- magistrlik mavzusi doirasida ilmiy-nazariy adabiyotlar bilan tanishadi, ilmiy-tadqiqot ishini olib boradi.
- Ilmiy-pedagogik ish – magistrning kelgusida oliy ta'lim va quyi ta'limda pedagog sifatida faoliyat yuritishi hisobga olinib, dars jarayonini kuzatadi, bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi.
- Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – magistrning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Shu maqsadda ilmiy-tadqiqot muassasalarida amaliyot olib boradi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: lingvist-tadqiqotchi

2.3.2. 70230101– Lingvistika (o‘zbek tili) magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1410	47
Tanlov fanlar	390	13
Ilmiy-pedagogik amaliyot	1800	60
Jami	3600	120

2.3.3. 70230101– Lingvistika (o‘zbek tili) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00	Majburiy fanlar	1410	47	
1.01	ITM 1 04 Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	NT 1 05 Nazariy tilshunoslik	150	5	1
1.03	PL 1 05 Psixolingvistika	150	5	1
1.04	AL 2 05 Areal lingvistika	150	5	2
1.05	MT 1 05 Matn tilshunosligi	150	5	1
1.06	PL 1 05 Pragmalingvistika	150	5	1
1.07	KT 2 05 Kognitiv tilshunoslik	150	5	2
1.08	SM 3 04 Semantika	120	4	3
1.09	XSL 3 04 Xorijiy sotsiolingvistika	120	4	3
1.10	MFO‘M 2 05 Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	150	5	2
2.00	Tanlov fanlari	390	13	
2.00	<i>Tanlov fanlari (3 ta fan)</i>	390	13	2,3
3.00	Ilmiy faoliyat	1800	60	1,2,3,4
	HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruva faoliyati, ilmiy amaliyot, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILGAN:

Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



Rektor

Sh.Sirojiddinov

2023-yil « 10 » 07

M.O.


KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Direktor Sh.Yakubov
2023-yil « 02 » 08
M.O.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi O'zbek tili,
adabiyoti va folklori instituti

Direktor N.Mahmudov



2023 -yil « 10 » 07
M.O.

O'zbekiston Milliy universiteti
Rektor L.Madjidov

2023-yil « 10 » 07
M.O.



**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
70230101 – *Lingvistika (o‘zbek tili)* magistratura mutaxassisligi malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliv ta’lim muassasalari
va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida**
KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“10” 07 2023-yil

Biz, quyida imzo chekuvchilar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Sh.Sirojiddinov, O‘zbekiston Milliy universiteti rektori prof. I.Madjidov, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori N.Mahmudov birgalikda ToshDO‘TAUda ishlab chiqilgan quyidagi **70230101 – *Lingvistika (o‘zbek tili)* magistratura mutaxassisligi malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:**

70230101 – *Lingvistika (o‘zbek tili)*.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-sonli, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyundagi “2022/2023-o‘quv yilda O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-5157-sonli Qarorlari va 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi F-31-sonli Farmoyishlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.


Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘ylgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va o‘quv dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talabi va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori**

Sh.Sirojiddinov



**O'zbekiston Milliy universiteti
rektori, professor**

I.Madjidov

**O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti
va folklori instituti direktori**

N.Mahmudov

